

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 246 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyeovich, Sharifi Abdul Fatah</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH

Xatamov Nurbek Ochildiyeovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti

Sharifi Abdul Fatah

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya qarorlarini qabul qilishda raqamli platformalar, katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va moliyaviy texnologiyalarning (FinTech) o'rni ochib beriladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya investitsiya jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Maqolada investitsiya risklarini baholash va boshqarishda raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilib, investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, investitsiya faoliyati, investitsiya boshqaruvi, raqamli transformatsiya, Big Data, sun'iy intellekt, FinTech, investitsiya risklari, raqamli platformalar, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of managing investment activities based on digital technologies. The study analyzes the role of digital platforms, Big Data, artificial intelligence, and financial technologies (FinTech) in the investment decision-making process. It substantiates the impact of digital transformation on enhancing transparency, efficiency, and responsiveness of investment processes. Special attention is given to the application of digital tools in assessing and managing investment risks. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the management of investment activities in the context of the digital economy.

Keywords: digital technologies, investment activity, investment management, digital transformation, Big Data, artificial intelligence, FinTech, investment risks, digital platforms, economic efficiency.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты управления инвестиционной деятельностью на основе цифровых технологий. Анализируется роль цифровых платформ, больших данных (Big Data), искусственного интеллекта и финансовых технологий (FinTech) в процессе принятия инвестиционных решений. Обосновывается влияние цифровой трансформации на повышение прозрачности, оперативности и эффективности инвестиционных процессов. Особое внимание уделяется использованию цифровых инструментов в оценке и управлении инвестиционными рисками. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы управления инвестиционной деятельностью в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: Цифровые технологии, инвестиционная деятельность, управление инвестициями, цифровая трансформация, Big Data, искусственный интеллект, FinTech, инвестиционные риски, цифровые платформы, экономическая эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish mexanizmlariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), blokcheyn, bulutli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar (FinTech) kabi raqamli yechimlarning joriy etilishi investitsiya qarorlarini qabul qilishda aniqlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirish



imkonini bermoqda. Natijada investitsiya jarayonlari an'anaviy boshqaruv usullaridan raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar asosida boshqariladigan zamonaviy modellarga o'tmoqda.

Raqamli texnologiyalar investitsiya faoliyatida risklarni baholash, investitsiya portfelini optimallashtirish, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini prognozlash hamda investitsiya oqimlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlari investorlar va davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvini soddalashtirib, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, investitsiya faoliyatini boshqarishda raqamli texnologiyalarning roli, imkoniyatlari va ularni joriy etish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalar asosida investitsiya faoliyatini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya — bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.

Bu borada mahalliy olimlarning qarashlariga e'tibor qaratamiz: akademik S.S. G'ulomovning fikricha, "investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion obyektga sarflashiga aytiladi". Bu fikrni davom ettirgan A. Sobirov esa "investitsiyalar — bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga investorlar tomonidan quyiladigan mulk va intellektual qadriyatlarining barcha turlarini ifodalovchi mablag'larning kiritilishidir", deb ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonlariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar (fintech), sun'iy intellekt, "big data", blokcheyn va raqamli platformalarning investitsiya qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishdagi o'rni keng yoritilgan.

Xalqaro tadqiqotchilar, xususan, Tapscott va Tapscott (2018) o'z ishlarida blokcheyn texnologiyalarining investitsiya muhitidagi shaffoflik va ishonchlilikni oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, raqamli reyestrlar investitsiya operatsiyalarida tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va risklarni minimallashtiradi. PwC va McKinsey Global Institute hisobotlarida esa raqamli platformalar asosida investitsiyalarni boshqarish investorlar va loyihalar o'rtasidagi axborot assimetriasini kamaytirishi qayd etilgan.

Brynjolfsson va McAfee (2017) raqamli texnologiyalarni qo'llash investitsiya faoliyatida real vaqt rejimida tahlil va prognozlash imkonini berishini asoslab beradi. Ularning tadqiqotlarida "big data" va sun'iy intellekt asosida investitsiya portfellarini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, robo-maslahatchilar (robo-advisors) orqali investitsiya boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalari ham ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda.

MDH va O'zbekiston olimlari ishlarida raqamli texnologiyalar asosida investitsiya faoliyatini boshqarish asosan davlat investitsiya siyosatini takomillashtirish, elektron hukumat tizimlari va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Jumladan, X. Abdullayev, N. Xatamov va boshqa mahalliy tadqiqotchilar O'zbekiston sharoitida raqamli platformalar orqali investitsiya loyihalarini tanlash, monitoring qilish va baholash mexanizmlarini taklif etgan. Ushbu ishlar investitsiya jarayonlarida raqamlashtirish darajasini oshirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, Jahon banki va OECD tomonidan chop etilgan ilmiy hisobotlarda raqamli texnologiyalar investitsiya muhitini yaxshilashning muhim omili sifatida baholanadi. Ularning xulosalariga ko'ra, raqamli investitsiya platformalari va elektron ruxsat berish tizimlari xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari xorijiy tadqiqotlarda chuqur tahlil qilingan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida ularni amaliy tatbiq etish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur holat raqamli texnologiyalarni investitsiya boshqaruviga joriy etish bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistik manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish va sabab-oqibat tahlili usullari orqali qayta ishlanib, raqamli texnologiyalarning investitsiya faoliyatini boshqarishga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ta'lim sifatini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy maqsadlaridan biri bu — mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarish, ulardan maqsadli foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy izlanishlar olib borish muhimdir. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish"ga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, "investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish joylarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish hamda hududlarni obodonlashtirish va xalq farovonligi darajasini oshirish" vazifalari qo'yilgan. Ta'kidlash lozimki, investitsiyalarni boshqarish murakkab jarayon bo'lib, bunda barcha omillarni hisobga olish lozim. Investitsiyalarni boshqarish bu — qabul qilingan strategiya asosida investitsion faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish va resurslar bilan ta'minlanganlik ustidan investorlarning (davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, fuqaro) nazorat olib borishidir. Bunda davlat nuqtayi nazaridan investitsiyalarni boshqarish asosan me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali ushbu jarayondagi barcha holatlarni tashkiliy jihatdan nazorat qilishdan iborat.

Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaning samaradorligini aniqlash jarayonlari muhim hisoblanadi. Korxona yoki alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalarni boshqarish qisqa muddatda kapital qo'yilmalarni boshqarish va ularning foydaliligini nazorat qilish orqali korxonaning kelajakdagi istiqboliga bog'liqdir. Bunda investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy vazifalariga investitsion jarayonlarni rivojlantirish strategiyasini qayta ishlash kiritilib, bunda umumiy strategiya va tashqi iqtisodiy vositalarning bashorat hajmlari butun tizimda, shuningdek, investitsion faoliyatning barcha ko'rsatkichlari uzoq muddatli davrda shakllantiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirishdan maqsad korxona boshqaruvida ishtirok etishdir. Aytish mumkinki, mazkur ta'riflar faqatgina to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning mohiyatini ochib beradi. Qayd etish joizki, investorlar mablag'larini joylashtirishda, birinchi navbatda, o'z maqsadlarini ko'zda tutadiki, ular hamma vaqt umumiy iqtisodiy foydalilikka muvofiq kelmasligi mumkin; xorijiy investitsiyalar turli (mulkiy, nomulkiy, intellektual va h.k.) shakllarga ega mablag'lar (resurslar)dan iboratligi ularning ikkinchi muhim xarakterli belgisidir; turli ko'rinishdagi resurslar investitsiyalarga aylanishi uchun ularning sarflanishi (harakati)ni taqozo etishi kerak. Bunda investitsiyalanayotgan resurslar ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganlik xarakteriga ega bo'lmog'i lozim. Bu investitsiyalarga tegishli uchinchi muhim xarakterli belgidir; resurslar (mablag'lar) sarflanishini taqozo etganda ular xarajatlar tarzida aks etadi.

Xorijiy olimlarning fikricha, "investitsiyalar bu — aktivlar egasining to'liq yoki qisman nazorati ostida moddiy boylik yaratish maqsadida foydalanish uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazilishini anglatadi". Bir qancha o'zbek iqtisodchi olimlari, xususan, A. Vahabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "investitsiyalar — foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar,

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir”.

Investitsiyalardan foydalanishning muhimligini ko'rsatib berish, yaqin istiqboldagi yechimlarni asoslash va investitsiya siyosatini qayta ishlash; investitsiyalarni boshqarishning samarali axborot tizimini yaratish, boshqaruvning turli muqobil variantlarini asoslash muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda dastlabki tashqi va ichki ma'lumot manbalari shakllantiriladi, rivojlanishning asosiy parametrlari bo'yicha monitoring tashkil qilinadi va shu asosida investitsiyalardan foydalaniladi, investitsion jarayonlarning turli jihatlarini tahlil qilinadi.

Bizning fikrimizcha, davlat investitsion siyosatini amalga oshirish, tartibga solish va shakllantirish mas'uliyati, shuningdek, aniq xususiy investitsion jarayonlar infratuzilmasini rivojlantirish va ta'minotini tashkil etish asosida investitsion faoliyatni boshqarishning quyidagi standart funksiyalarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir: tahlil va bashoratlashtirish; strategik, joriy va tezkor boshqaruv; faoliyatni nazorat qilish va tartibga solish. Boshqaruv subyektlari darajasida ushbu funksiyalar bir-biridan farqli ravishda amalga oshiriladi. Masalan, davlat darajasida investitsion faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish sohalaridagi boshqaruvni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, davlat investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri boshqarishni ham tashkil etadi. Davlat darajasida investitsiyalarni boshqarish jarayonining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat ekanini e'tiborga olishimiz darkor: investitsiyalash bo'yicha qonunchilik chora-tadbirlarini ko'rib chiqish; moliyaviy, pul-kredit va narx shakllanishi hamda amortizatsion siyosatlarni o'tkazish; davlat me'yorlari va standartlariga amal qilinishini nazorat qilish; monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar, davlat mulki obyektlarini xususiyashtirish hamda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish. Ushbu investitsiyalarni boshqarish funksiyalari barcha holatlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Biz yuqorida investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy funksiyalariga to'xtalib o'tib, ushbu funksiyalarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilib chiqdik. O'z navbatida, hududlar miqyosida investitsiyalarni boshqarish funksiyalari bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir hududda investitsiyalarni samarali boshqarish jarayoni ushbu hududning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar asosida investitsiya faoliyatini boshqarish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish, risklarni kamaytirish va qaror qabul qilish sifatini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot davomida investitsiya faoliyatini boshqarishda raqamli platformalar, katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt, blokcheyn va moliyaviy texnologiyalarning (FinTech) qo'llanilishi investitsiya muhitining shaffofligini ta'minlashi va investorlar ishonchini mustahkamlashi aniqlangan.

Raqamli texnologiyalar investitsiya loyihalarini tanlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli modellar asosida prognozlash va risklarni boshqarish mexanizmlarining joriy etilishi investitsiya portfellarining barqarorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli yechimlardan foydalanish investitsiya resurslarini samarali taqsimlashga hamda kapital oqimlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida investitsiya faoliyatini raqamlashtirish davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, investitsiya jarayonlarining ochiqqligini oshirish hamda xalqaro investorlarga qulay muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash investitsiya faoliyatini raqamli boshqarishning muhim shartlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida investitsiya faoliyatini boshqarish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda tizimli islohotlarni davom ettirish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2020). The wrong kind of AI? Artificial intelligence and the future of labour demand. *Cambridge Journal of Economics*, 44(4), 667–699.
2. Aghion, P., Akcigit, U., & Howitt, P. (2015). The Schumpeterian growth paradigm. *Annual Review of Economics*, 7, 557–575.
3. Banga, K., & te Velde, D. W. (2018). Digitalisation and the future of manufacturing in developing countries. Overseas Development Institute Working Paper.
4. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society* (2nd ed.). Oxford: Blackwell Publishing.
5. IMF. (2022). *Digitalization and Productivity: A Macroeconomic Perspective*. International Monetary Fund, Washington, DC.
6. OECD. (2019). *Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives*. Paris: OECD Publishing.
7. OECD. (2020). *Investment Policy Perspectives: Investing in a Digital World*. Paris: OECD Publishing.
8. Khatamov, N.O. Effective indicators for attracting foreign investment// *World Economics and Finance Bulletin*, 17, 59-61. ISSN (E): 2749-3628, Journal Impact Factor: 7.675. 2022-yil 30-yanvar. <https://scholarexpress.net>.



9. Khatamov. N.O. Econometric assessment of the influence of investment on the economic growth of the region//Journal of Management Value & Ethics, SJIF 8.001 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512. Jan-March 24 Special Issue.
10. N.Xatamov,O.Sattarov. E-commerce: role, concept, development directions// International journal of innovations in engineering research and technology [IJERT] ISSN: 2394-3696 Website: ijert.org VOLUME 9, ISSUE 12, Dec. -2022.
11. N.Xatamov, O.Xatamov. The importance of investment in human capital in the formation of an innovative economy// Innovative achievements in science conference (2022 February)- Chelyabinsk State Institute of Culture. 156-161 p. Website: the importance of investment in human capital in the formation of an innovative economy (zenodo.org)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100